

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA
KIRUVCHILAR UCHUN**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____
F.I.O. _____ Imzo _____

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: 32

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyot

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: 1701323

Toshkent – 2017

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Sharros yomg'irlar havoni tozalaydi, larzakor chaqmoqlar dilga jo'shqinlik beradi, sho'x qushlar insonga kuch-quvvat ato etadi.
Berilgan gap tarkibidagi sodda yasama so'zlarning yetakchi morfemalari qaysi so'z turkumilariga mansub?
1) ot; 2) sıfat; 3) fe'l; 4) ravish; 5) taqlid so'z; 6) undov so'z
A) 2, 3, 6 B) 1, 2, 3, 5 C) 1, 4, 5 D) 2, 4, 5, 6
2. Sariq rang ozodlikka va kuch -quvvatga intilish, ochiqlik, faollik, shuningdek, hayotga umidvorlik ramzidir.
Ushbu gapda yasalish asosi yasama sıfatga mansub bo'lgan so'z(lar) qanday sintaktik vazifa(lar)ni bajargan?
A) ega, to'ldiruvchi
B) to'ldiruvchi, aniqlovchi
C) kesim
D) aniqlovchi
3. To't o'rinda yasama so'zlar bilan ifodalangan hollar ishtirok etgan gapni aniqlang.
A) Buxoroga omon-eson yetib borganlaridan so'ng uning tarhini yaxshilab qog'ozga chizishini aytdi.
B) Shu payt yotog'imizdan bolalar ham birin-ketin ko'zlarini ishgalab, har yoyqa qarab tushib kela boshlashdi.
C) Saharlab choyni naridan beri ichib, otxonaga yugurdim.
D) G'uvullab uchayotgan bo'ron ichida yigitlar naridan beri bedalarni arava tagiga olib kirishdi.
4. Berilgan so'zlardan nechtasida portlovchi undosh o'rnida sirg'aluvchi undosh kelsa, so'z ma'nosini farqlab paronim juftlikni yuzaga keltiradi?
Qarz, sop, yonilg'i, sıqim, yaroqli, adib, burch
A) 3 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 6 ta
5. To'g'ri hukmnı aniqlang.
A) ovozdor undoshlarda shovqin ishtirok etmaydi
B) jarangli justi yo'q jarangsiz undoshlar hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar sanaladi
C) jarangli va jarangsiz juftlik hosil qiluvchi undoshlar shovqinli undoshlarga mansub
D) jarangsiz justi yo'q jarangli undoshlar faqat sonor undoshlar guruhiga mansub
6. Sabab holi sıfatdosh bilan ifodalangan egasi ma'lum gapni toping.
A) Tuman quyuqligidan yo'ly zo'rg'a ko'rinar edi.
B) Shamol tinavermagach, tog'ga chiqishni goldirdi.
C) Boshqa hech narsani yo'qligi uchun bitta-yu bitta ho'kizini berib yuboribди.
D) Uyalganidan bir zumba qizarib-bo'zarib ketdi va qadamini tezlatdi.
7. Farzandni kiydiradigan, yediradigan, voyage yetkazadigan va kelajagini porloq qilish uchun qayg'uradiganlar ota-ona, opa-aka va yaqin qarindoshlaridir, yo'g'ini yashiradigan, borini oshiradigan va obro'-e'tiborli qiladigan insonlar mahalladoshlari, tengdoshlari va do'staridir.
Ushbu qo'shma gapdagi gap bo'laklari haqida berilgan noto'g'ri hukmnı toping.
A) qo'shma gap tarkibidagi ikkala sodda gapda ham uyushiq egalar otlashgan so'z bilan ifodalangan
B) qo'shma gap tarkibidagi ikkala sodda gapda ham sodda ot kesim uyushgan
C) qo'shma gap tarkibidagi birinchi sodda gapda otlashgan so'z bilan ifodalangan ega uyushgan
D) qo'shma gap tarkibidagi ikkinchi sodda gapda uyushiq aniqlovchi qatnashgan
8. Berilgan so'zlardan qaysilarining turlangan shakkiali ham o'zaro omonim bo'la oladi?
1) soch, 2) shox, 3) sir, 4) tovon, 5) es 6) bot
A) 4, 5, 6 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 6
9. Yaproqlar tebranar **she'r** maqomiga,
Chechaklar jimgina egib turar **bosh**.
Marmar sarhovuzning kumush jomiga
Shoir ko'zlaridan oqib tushar **yosh**.
Ushbu she'riy parchada ajratib ko'rsatilgan so'zlardan nechta shakldoshlik xususiyatiga ega?
A) I B) 4 C) 2 D) 3

10. Quyidagi gapda ma'no ko'chishining qaysi tur(lar)i qatnashgan?
Aytmaganning dasturxoniga borib qadrimni tushirmoqchi emasman.
A) *faqat metafora*
B) *metonimiya, metafora*
C) *sinekdoxa, metafora*
D) *vazifadoshlik, metonimiya*
11. Qaysi javobda berilgan so'zlar bir xil so'z turkumiga mansub?
A) *chirindi, sog'ildi* B) *chirindi, bilindi* C) *qirildi, chirindi* D) *qirindi, chirindi*
12. Bir so'z bilan har kishi ,
O'zligini ko'rsatar.
So'z gayharin ko'pincha,
Dono olar, ko'r sotar.
Berilgan she'riy parchada ichi bo'sh so'zlar miqdori nechta?
A) *1ta* B) *2ta* C) *3ta* D) *4ta*
13. Bir kuni chol bechora qo'llari titrab osh suzilgan kosasini sindirdi, buni ko'rgan kelini nordon so'zlar aytib uni ko'nglini vayron qildi. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyg'a ko'chirdi.
Ushbu parchada qatnashgan fe'llar haqida berilgan to'g'ri fikrni aniqlang.
A) *ortirma nisbatdag'i fe'l 2 o'rinda qatnashgan*
B) *aniq nisbatdag'i fe'l 4 o'rinda qatnashgan*
C) *o'zlik nisbatdag'i fe'l 1 o'rinda qatnashgan*
D) *o'timli-o'timsizlik ma'nosи nisbat qo'shimchasi ta'sirida o'zgargan fe'l 1 o'rinda qatnashgan*
14. Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zoda, Olti oykim, o'zgalarga tilayman omad. Olti oykim, do'starim ham pana-panada Iste'dodim so'nganidan qilar karomat.
Berilgan she'riy parchada qaysi kelishik qo'shimchasi ko'makchi bilan ma'nodoshlik hosil qilishi mumkin?
A) *qaratqich kelishigi qo'shimchasi*
B) *chiqish va o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi*
C) *chiqish kelishigi qo'shimchasi*
D) *o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi*
15. Safar qilsang, uydan ko'ngling to'q qilgin,
Lekin g'iybat bor joylarda yo'q bo'lgan,
Shoir bo'sang, yomonlikka o'q bo'lgan,
Dardililarning dillarini yorgil, bolam.
Ushbu gap...
A) *bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap*
B) *qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap*
C) *bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap*
D) *aralash murakkab qo'shma gap*
16. Berilgan so'zlardan nechtasida nuqtalar o'rniga chuqr til orqa sirg'aluvchi jarangsiz undosh qo'yilishi kerak?
...alifa, ...ilvatgoh, mu...olif, ...assos, e...rom, shuku...li, ta...sin
A) *to'rtasida* B) *ikkitasida* C) *beshtasida* D) *uchtasida*
17. Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lasi bir mayin,
Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allalayin.
Dudog'ing guldan xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,
Kel oppog'im, bag'rimga jajji boshginangni qo'y.
She'riy parchadagi vergullarning qo'llanishi haqidagi hukmlardan qaysilarini to'g'ri?
1. Vergul undalmalarni ajratish uchun qo'llangan. 2. Uyushiq ega qatnashganligi uchun vergul qo'llangan. 3. Ajratilgan bo'laklar mavjudligi uchun vergul qo'llangan. 4. Vergul qo'shma gap qismlarini ajratish uchun qo'llangan
A) *I, 4* B) *I, 2, 4* C) *I, 3, 4* D) *2, 3*
18. Qaysi gapda to'ldiruvchini aniqlab kelgan ajratilgan sıfatlovchi aniqlovchi mavjud?
A) *Yo'lim boshladi to kezdim dala-tog', Kezdim ne yurtlarni-chiroylি tengsiz*
B) *Qozoq sahrosi -bu beedad sahro, Xayolday bepoyon, cheksiz va yiroq*
C) *Ko'kdagi oy tanhodir, yakka-yu yolg'iz.*
D) *Biri olim- xushfe'l, yoqimli.*
19. Egasi shaxs oti bilan ifogalangan gani aniqlang.
A) *Kitobxoni yo'q asar egasi tashlab ketgan uyga o'xshab fayzsizdir.*
B) *Qalbi qog'ozdekk oppoq, qog'ozdekk lovullab yonadigan odamgina chinakam san'at asari yarata oladi.*

- C) Yaxshi farzand ota umrini davom ettirishi azaldan mal'um, yaxshi asar esa yozuvchi umrini davom ettiradi.
D) Haqiqiy haykaltarosh o'lik toshdan yasagan haykal tirikka o'xshaydi.
20. Qaysi javobda uch o'rinda to'ldiruvchili boshqaruv munosabatlari so'z birikmasi mavjud?
A) Yalqov o'ylab charxpak topgan, Ijod qilgan shamol tegirmon.
B) Parvoz etsam, yuksak samoda Zamonaviy laynerda bukun.
C) Ishchan azal tinmay yer chopgan, O'g'ir tuygan, sovurgan somon.
D) Dangasalar esa o'y surib, Yotish uchun izlashar chora.
21. Chodir eshidiga osilgan kimxbob parda Humoyunning qo'liga mayin va salqintegdi.
Berilgan gapda bitishuvli so'z birikmalaridagi tobe qismlar qaysi turkumlarga oid?
A) bir o'rinda fe'l, bir o'rinda ot, ikki o'rinda sifatga oid
B) bir o'rinda fe'l, bir o'rinda sifat, ikki o'rinda ravishga oid
C) bir o'rinda fe'l, uch o'rinda sifatga oid
D) bir o'rinda fe'l, ikki o'rinda sifatga oid
22. Quyidagi qaysi fe'llarning yetakchi morfemasi ot turkumiga oid so'z bilan omonim bo'lola oladi?
1) erimoq; 2) yashirinmoq; 3) chaqmoq; 4) saqlamoq; 5) qopmoq
A) 3, 4, 5 B) 1, 5 C) 1, 4, 5 D) 1, 2, 3, 5
23. Qaysi gapda tarkibida lug'aviy shakl yashovchi qo'shimcha mavjud sifatlanmish qatnashgan?
A) Sizsiz kelajak yo'q, siz axir xalqning Ming yilni ko'rajak qarog'larisiz.
B) Shahidlarning qirmiz qonidan, Alvon bo'ldi qora tunlaring.
C) Qo'chqor bo'laturgan qo'zichoqning manglayi tug'ilgan chog'da do'ng bo'lur.
D) Uzoqlarda zalvorli tog'lar xayolimni keldilar bosib
24. Berilgan gapda bir tovushdan iborat qo'shimchalar necha o'rinda qo'llangan?
Ana shunday tarixiy vaziyatda mazkur xalqlar xohlagan vaqtida tikib yashab, xohlagan paytda yig'ib, ko'chiga ortib ketishiga qulay bo'lgan ko'chma uylardan foydalanganlar.
A) 4 ta B) 5 ta C) 6 ta D) 3 ta
25. Quyidagi misralar qaysi shoir qalamiga mansub?
Muhabbat, ey go'zal iztirob,
Ey ko'hna dard, ey ko'nha tuyg'u.
Ko'kraginiq qo'lingni tirab,
Yuragimni to'kib qo'yding-ku.
A) Abdulla Oripov B) Erkin Vohidov C) Muhammad Yusuf D) Shavkat Rahmon
26. Turob To'laning balet librettosi qaysi javobda berilgan?
A) "Malikayi ayyor" B) "Samarqand afsonasi" C) "Zulmatdan ziyo" D) "Momo yer"
27. G'azali musajja usulida bitilgan g'azalni belgilang.
A) "Jong'a chun dermen..." g'azali (Navoiy)
B) "Shifsoyi vasl qadrin..." g'azali (Fuzuliy)
C) "Mani jondan o'sondirdi..." g'azali (Fuzuliy)
D) "Mani jondan o'sondirdi..." g'azali (Fuzuliy)
28. Qaysi ijodkor she'rleridan birida o'zini "kuyib o'tangan elning xoki, nazm elining choloki, xonning boshining pokidurman" deya ta'rif beradi?
A) Avaz O'tar B) Turdi C) Zavqiy D) Muqumi
29. Qaysi shoir o'zbek xalqining yig'ma obrazini
"Sonsiz egatlarga sochilmish, ana,
Mening orzularim, mening o'ylarim" tarzida umumlashtirgan?
A) G'afur G'ulom B) Muhammad Yusuf C) Abdulla Oripov D) Erkin Vohidov
30. Navoiy kimlarning xotirasiga bag'ishlab memuar – estaliklardan iborat nasriy asarlar yaratgan?
1) Husayn Bayqaro; 2) Sayyid Hasan Ardasher; 3) Abdurahmon Jomiy;
4) Pahlavon Mahammad
A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 1, 2, 3, 4 D) 2, 3, 4
31. O'z ma'shuqasini ilk bora tushida ko'rgan badiiy qahramonni aniqlang.
A) Suhayl ("Suhayl va Guldursun")
B) Ravshan ("Ravshan")
C) Farhod ("Farhod va Shirin")
- D) Rustamxon ("Rustamxon")
32. Shuhratning "Oltin zanglamas" romanida Sodiqni maktabdagisi halol o'qituvchilarni quvg'in qilish, ta'qib ostiga olishda ayblagan adabiy qahramonni aniqlang.
A) Mirsalim B) Sa'dullayev C) Shukurov D) M. Abdurahmonova
33. "Qazog'a rozi va balog'a sabrli bo'lmoqning bayoni" berilgan asarni aniqlang.
A) "Gulistoni bit-turkiy" (Sayfi Saroyi)
B) "Sabot ul-ojizin" (So'fi Olloyor)
C) "Hibat ul-haqoyiq" (Ahmad Yugnakiy)
D) "Rohati dil" (Huvaydo)
34. Hasbi hol yo'nalishidagi quyidagi misralar qaysi shoira qalamiga mansub?
Yigirma yil maktab ochdim qizlara,
Hirsim baland bo'ldi doyim ash'ora.
O'zum bitdim mingdin ortuq g'azalni,
Zikr etib o'tdim oxir azalni.
A) Dilshodi Barno B) Nodira C) Anbar Otin D) Jahon Otin Uvaysiy
35. Qaysi asar turkiy tildagi ilk badiiy doston sanaladi?
A) "Muhabbatnama" B) "Qutadg'u biling" C) "Devonu lug'otit-turk" D) "Qissasi Rabg'uziy"
36. Junun dashtini sargardonidurmen,
Rafiqim ushbu vodiya quyun bas.
Baytda qanday she'riy san'at turi qo'llangan?
A) takrir B) tanosub C) talmeh D) tajnis
- ### BIOLOGIYA
37. Quyonlarda qulok suprasining uzunligi 2 juft polimer genlarga bog'liq. Agar qulok suprasining uzunligi 24 sm li A₁A₁A₂A₂ genotipli urg'ochi quyon va qulok suprasining uzunligi 16 sm li a₁a₁A₂A₂ genotipli erkak quyon bilan chatishirilsa, avlodning necha foizini qulok suprasining uzunligi 20 sm li quyonlar tashkil qiladi?
A) 25 B) 75 C) 50 D) 12,5
38. Tishlarning qoramir rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchidi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lgan erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lgan ayol oиласида tishlari normal bo'lgan qiz va o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada tug'ilgan farzandlar orasidan tishlari normal o'g'il bolalarning tug'ilish ehtimolini (%) toping?
A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
39. Retinoblastoma ko'zning onkologik kasalligi bo'lib, erkaklar va ayollarda bir xilda uchraydi. Kasal ota-onalardan kasal farzandlarning tug'ilish ehtimolligi 75% yoki 100% bo'ladi. Otasi gomozigota kasal, onasi sog' bo'lgan qiz sog'lom yigitga tur mushga chiqsa, farzandlarning 50% i kasal tug'ildi. Ushbu kasallikning irsiyanish qanday genga bog'liq?
A) autosomaga birikkan dominant genga
B) autosomaga birikkan retsessiv genga
C) X-xromosomaga birikkan dominant genga
D) X-xromosomaga birikkan retsessiv genga
40. i-RNK zanjirida 60 ta triplet mavjud. Undagi nukleotidlarning 1/3 qismi uratsilli, 1/5 qismi adeninli, 20% i sitozinli nukleotidlardan iborat. Nuklein kislotalar tarkibidagi nukleotidlari fosfodiefir bog'lar orqali tutashadi. Shu i-RNK fosfodiefir bog'lar sonini (a) va nukleotidlari tarkibini (b) toping.
A) a=179, b-U=20, A=12, C=12, G=16
B) a=179, b-U=60, A=36, C=36, G=48
C) a=59; b-U=20, A=12, C=12, G=16
D) a=180; b-U=60, A=36, C=36, G=48
41. Hujayrada fotosintezning yorug'lik bosqichida 720 kJ energiya ATF da jamlanadi. Shu energiya necha molekula glukoza sinteziga yetadi?
A) 10 B) 2 C) 6 D) 1
42. Tetraploid navli qalampirning 35 ta birlamchi jinsiy hujayralaridan hosil bo'lgan spermilyarning noma'lum qismi urug'lantirishda qatnashdi. Urug'lantirishda qatnashmagan spermilyardagi jami xromosomalar soni urug'lantirishda qatnashgan spermilyardagi jami xromosomlar sonidan 8064 taga ko'p bo'lsa, markaziy hujayrani urug'lantirgan spermilyar sonini aniqlang.
A) 56 B) 49 C) 28 D) 72

43. Qaysi javobda o'simliklar sistematikasi kichik sistematik guruhdan katta sistematik guruhga qarab to'g'ri ketma-ketlikda ko'rsatilgan?
 1) tokdoshlar; 2) terakbargli liftok; 3) magnoliyasimonlar; 4) ikki urug'pallalilar; 5) liftok; 6) magnoliyatoifalar; 7) yopiq urug'lilar; 8) qoqio'tdoshlar; 9) madanli tok
 A) 2,9,8,3,7 B) 5,2,1,4,7 C) 5,2,1,3,6 D) 2,5,1,4,6
44. Noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.
 A) Bug'doy o'simligi hujayrasida 4-juft xromosomada inversiya yuz berganda 14 ta xromosoma bo'ladi.
 B) Makkajo'xori o'simligida 3-va 5-juft xromosomalar tarqalmay bitta qutbga to'planishi natijasida meyoz I yakunida 8 yoki 12 ta xromosomali hujayralar hosil bo'ladi.
 C) No'xat o'simligida 2-va 6-juft xromosomalar tarqalmay bir qutbga to'planishi natijasida meyoz I yakunida hujayrada 9 yoki 5 ta xromosoma bo'ladi.
 D) Qalampir hujayrasida to'rt juft gomologik xromosomalar faqat bitta qutbga to'plansa, meyoz I yakunida 45 yoki 51 ta xromosomali to'plam hosil bo'ladi.
45. Quyidagi hayvonlarni ularning fandagi nomi bilan to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni toping.
 1) o'txo'r kaltakesak; 2) toshbaqalar avlod; 3) baliq kaltakesak; 4) yirtqich kaltakesak; 5) uch shohli kaltakesak; 6) ilon kaltakesak;
 a) plakoxelis; b) tritsopetops; c) tiranozavr; d) mezozavr; e) brontozavr; f) ixtizozavr
 A) 1-e; 2-a; 3-f; 4-c; 5-b; 6-d
 B) 1-b; 2-a; 3-d; 4-e; 5-c; 6-f
 C) 1-c; 2-e; 3-f; 4-a; 5-b; 6-d
 D) 1-e; 2-d; 3-f; 4-b; 5-c; 6-a
46. Organizm (a) va biosfera (b) darajadagi hodisalarini aniqlang.
 1) lipa changdonida arxeosporaning hosil bo'lishi; 2) itbaliqning metamorfozi; 3) uglerodning biogen migratsiyasi; 4) yadrochada ribosomalarning shakllanishi; 5) lishaynikda suvo't va zamburug'ning o'zaro munosabati; 6) qirg'ovul kenja turining paydo bo'lishi; 7) o'tloqda o'suvchi o'simliklar va o'txo'r hayvonlarning o'zaro munosabati
 A) a-2,5; b-3
 B) a-1,6; b-3
 C) a-5,7; b-3
 D) a-2,4,6; b-7
47. Birlamchi konsument (a), ikkilamchi konsument (b) umurtqasiz organizmlar ko'rsatilgan javobni aniqlang.
 1) bronza qo'ng'izi; 2) ko'l baqasi; 3) O'rta osiyo toshbaqsi; 4) qaldirk'och; 5) chuchuk suv gidrasi; 6) botqoq toshbaqasi; 7) hasva qandalasi; 8) zlatka; 9) chigirtka; 10) ninachi lichinkasi
 A) a-1,7; b-4,8
 B) a-7,9; b-5,10
 C) a-7,9; b-5,6
 D) a-3,7; b-2,4
48. Xushbo'y no'xat o'simligiga tegishli bo'lмаган ma'lumotlarni aniqlang.
 1) gulining qizil rangda bo'lishi dominant genga bog'liq; 2) hujayrasida polimeraza fermentlari yordamida polinukleotidlardan sintez qilinadi; 3) konsument sifatida oziq zanjiri tarkibiga kiradi; 4) sitoplazmasida 180 g glukozadan achish jarayonida 120 kJ energiya issiqqlik sifatida tarqaladi; 5) hujayra qobig'ini tashkil etuvchi polimer nukleotidlardan tashkil topgan; 6) hujayrasida ATF faqat anaerob sharoitda sintezlanadi
 A) 1,4,6 B) 3,5,6 C) 2,3,5 D) 1,3,4
49. Odamning ko'payishiga xos bo'lмаган ma'lumotlarni aniqlang.
 A) Tuxumdonda bir juft bo'lib, tuxum hujayra va esterogen ishlab chiqaradi.
 B) Homila bir hafta davomida tuxum yo'lida, ikkinchi haftadan boshlab bachadonda 9 oy rivojlanadi.
 C) Bachadona bo'shilig'iga o'tgan homilaning tashqi qismidan mahsus hujayralar birikmasi hosil bo'lib, u orqali homila bachadon devoriga birikadi.
 D) X xromosomali spermatozoid va Y xromosomali tuxum hujayra qo'shilishidan erkak organizm rivojlanadi.
50. II qon guruhiga ega rezus musbat, sog'lom o'g'il bolaning katta qon aylanish doirasi arteriyalardagi qon plazmasida qanday moddalar bo'ladi?
 A) antitanalar, insulin, agglyutinin β , gemoglobin, glyukoza, fermentlar
 B) gormonlar, vitaminlar, antitanalar, glyukoza, agglyutinogen A
 C) antigemofil omil, agglyutinin β , gormonlar, vitaminlar, rezus omil
 D) aminokislota, mochevina, kreatinin, tiamin, agglyutinin β
51. Odamdag'i o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.
 1) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichasmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskul bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskul hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'Ining harakatida ishtirot etadi
 A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Odam organizmida A vitaminining yetishmasligi natijasida...
 A) enterit kasalligi kelib chiqadi, epitely to'qimasining yangilanishi buziladi
 B) milklar qonaydi, tishlar to'kiladi, traxeyaning shilliq pardasi yallig'lanadi
 C) nerv tolalari salajlanadi, bronxlearning shilliq pardasi yallig'lanadi
 D) qo'l-oyoq muskullari uvushib og'riydi, nerv tolalari salajlanadi
53. Sezgi analizatorlari haqidagi noto'g'ri fikmi aniqlang.
 A) Terining derma qavatida issiqni va bosimni sezuvchi retseptorlar siypalashni va og'rini sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.
 B) Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining kamayib ketishi tufayli yuzaga keladi.
 C) Qulogning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida endolimfa, parda labirinti ichida perilimfa suyuqligi bo'ladi.
 D) Harakat analizatorning oly nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stilog'ining oldindi markaziy egatida joylashgan.
54. Qaysi hasharotlar metamorfoz jarayonida og'iz a'zolari o'zgaradi?
 1) chigirtka; 2) bronza qo'ng'izi; 3) ninachi; 4) to'shak qandalasi; 5) podalarliy; 6) tovusko'z; 7) olma mevaxo'ri
 A) 6,7 B) 1,2 C) 3,4 D) 1,5
55. Butli o'rgimchak oyoq paypaslagichlariga xos xususiyatlarni aniqlang.
 1) xitin po'st bilan qoplanmagan; 2) pastki jag'lar vazifasini bajaradi; 3) sezgir tukchalar bilan qoplangan; 4) yurishda ishtirot etadi; 5) yurish oyoqlariga nisbatan kalta; 6) tuyg'u organi hisoblanadi
 A) 2,3,6 B) 4,5 C) 1,3,5 D) 1,4
56. Bosh skeletsizlarning bosh skeletlilardan farqini aniqlang.
 1) nerv sistemasi nerv nayidan iborat; 2) ichki skelet mavjud emas; 3) bosh va orqa miya markaziy nerv sistemasini hosil qiladi; 4) umurtqa pog'onasi rivojlanmagan; 5) qon aylanish doirasi yopiq; 6) skeleti suyak va tog'aydan iborat
 A) 1,4 B) 3,5,6 C) 2,4 D) 1,2,5
57. Quyida keltirilgan hayvonlar qushlar (a), sudralib yuruvchilar (b), suvda ham quruqlikda yashovchilar (c) sinflariga ajratib ko'rsatilgan javobni belgilang.
 1) kazuar; 2) iguana; 3) lira; 4) povituxa; 5) xameleon; 6) agama; 7) sezarka; 8) kvaksha; 9) salamandra
 A) a-2,3,7; b-1,5,9; c-4,6,8
 B) a-1,3,7; b-2,5,6; c-4,8,9
 C) a-2,5,6 b-4,8,9; c-1,3,7
 D) a-1,5,7; b-3,4,6; c-2,8,9
58. Qaysi organizmlarda katta va kichik qon aylanish doirasi yagona qorinchadan boshlanadi?
 a) itbaliq; b) salamandra; c) manta; d) qizilto'sh; e) kvaksha; f) gavial; g) turkiston agaması
 A) a,c B) a,b,e C) d,f D) b,e,g
59. Prokariot hujayraga xos bo'lмаган ma'lumotlarni aniqlang.
 1) tugunak bakteriyasida membrana sitoplazmani hujayra qobig'idan ajratib turadi; 2) nostokning sharsimon hujayrasida ribosoma, halqasimon DNA va mezosoma mavjud; 3) xrokkok sentroplazmasidagi xlorofill birlamchi ulg'evod sintezini amalga oshiradi; 4) gommox qo'zg'atuvchisi hujayrasida fotosintez membranalarda amalga oshiradi; 5) pichan bakteriyasida irlisy axborot sitoplazmadagi membrana bilan o'ralgan halqasimon polinukleotidda joylashgan; 6) prokariot hujayrada zaxira moddalar sifatida polisaxaridlar va yog'lar to'planadi
 A) 1,6 B) 1,3 C) 3,5 D) 2,4
60. Nukleoproteinlari yadro va sitoplazmada (a), faqat sitoplazmada (b) joylashgan organizmlarni juftlab ko'rsating.
 1) herpes; 2) exinokokk; 3) batsilla; 4) achitqi; 5) ossillatoriya; 6) xlorella; 7) xrokkok; 8) batsidiya; 9) bakteriofag; 10) OITV
 A) a-1,9,7; b-4

- B) a-4,6,8; b-3,5
C) a-3,7; b-2,6
D) a-3,10; b-4,6
- 61.** Orangutan somatik hujayrasida sodir bo'ladigan mitoz jarayoni haqida to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
1) metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 96 ta; 2) anafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 96 ta; 3) profazada ikki xromatidali autosomalar soni 46 ta; 4) anafazada xromosomalar soni 96 ta; 5) metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta; 6) interfaza G₂ davrida ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta
A) I,6 B) 4,5 C) 2,3 D) 2,5
- 62.** Bir-biriga yaqin turlardan tashkil topgan sistemali birlikka mansub toza liniyalarni aniqlang.
1) jaydari g'o'za; 2) Meksika g'o'zasi; 3) kanop; 4) Misr g'o'zasi; 5) "Yulduz"; 6) "Buxoro-9"; 7) "Omad"; 8) "Toshkent-1"; 9) bo'ritaroq; 10) "Sangzor"
A) 5,6,7 B) I,2,4 C) 7,8,10 D) I,3,9
- 63.** Reduplikatsiya (I) va denaturatsiya (II) uchun mos keluvchi ta'riflarni juftlang.
a) oqsillarning tabiiy holatini yo'qotishi; b) DNKnning ikki hissa ortishi; c) xromosoma ayrim qismlarining ortishi; d) xromosoma o'rta qismining ajralishi
A) I-d; II-c
B) I-c; II-b
C) I-b; II-a
D) I-b; II-d
- 64.** Nastarin qaysi jihatlar bilan kamxastakdan farq qiladi?
1) urug'lanishdan so'ng meva hosil qilishi; 2) gullarning qiyshiqligi; 3) ro'vak to'pgul hosil qilishi; 4) barglarini novdada joylashuvi; 5) hayotiy shakli; 6) tanasining yog'ochlashganligi
A) I,3 B) 2,5 C) 4,6 D) 2,6
- 65.** Nastarin qaysi jihatlar bilan tokka o'xshaydi?
1) urug'lanishdan so'ng meva hosil qilishi; 2) gullarning qiyshiqligi; 3) ro'vak to'pgul hosil qilishi; 4) barglarining novdada joylashuvi;
5) hayotiy shakli; 6) gulpoyasining shoxlanishi
A) I,3 B) 2,5 C) 4,6 D) 4,5
- 66.** Rezavor meva hosil qiladigan o'simlik navlarini aniqlang.
1) Zarg'aldoq; 2) Vatan; 3) Farhod; 4) Sohibi; 5) Gultish; 6) Qozidastor; 7) Buvaki; 8) Zarmiton; 9) Obidov; 10) Kattaqo'rg'on
A) 4,5,7,10 B) I,3,6,9 C) 5,7,8,10 D) I,2,7,8
- 67.** Makkajo'xori haqida to'g'ri ko'rsatilgan ma'lumotni aniqlang.
A) *Poxol poyasi bir metrдан oshadigan, bo'g'i mlarga bo'lingan, tik o'suvchi ko'p yillik o'simlik.*
B) *Urug'dagi murtagi ildizcha, poyacha va ikkita bargchadan tashkil topgan.*
C) *Gullari mayda, rangsiz, ayrim jinsli, urug'chi gullar so'ta to'pgulida tashkil joylashgan.*
D) *Chatnaydigan mevasi quruq, etsiz, ko'p urug'li.*
- 68.** Evernia haqidagi noto'g'ri ma'lumotni toping.
A) atmosfera havosi tozaligini ko'rsatuvchi mezon
B) tuproq hosil bo'lishida ishtirok etadi
C) poyasida xitin moddasi uchraydi
D) zamburug' bilan bir hujayrali suvo'tining simbiozi
- 69.** Sho'radoshlar oilasiga kiradigan quyidagi o'simliklarni hayotiy shakli bilan juftlab ko'rsating.
a) saksovul; b) teresken; c) qizil lavlagi; d) Turkiston ismalog'i
1) bir yillik o't; 2) ikki yillik o't; 3) buta; 4) yarimbuta; 5) daraxt
A) a-5; b-4; c-2; d-1 B) a-5; b-4; c-2; d-3 C) a-3; b-1; c-2; d-4 D) a-4; b-5; c-1; d-2
- 70.** Oddiy vampir haqidagi to'g'ri ma'lumotni belgilang.
A) qanoitlari tritonning oldingi oyoqlari bilan o'zaro analogik organ
B) o'ljasini havoda orqa oyoqlari yordamida ovlaydi
C) lablari yumshoq, bo'yin umurtqalari soni 8 ta
D) Janubiy Amerika zoogeografik viloyatida uchraydi
- 71.** Tabiiy areali Paleoarktik biogeografik viloyati hisoblanadigan urg'ochilar gomogametali (a), tabiiy areali Neotropik biogeografik viloyati hisoblanadigan erkaklari geterogametali (b) organizmlarni aniqlang.
- 1) kabarga; 2) zubr; 3) kolibri; 4) maral; 5) tapir; 6) lama; 7) kondor; 8) malla revun
A) a-2,6; b-4,8 B) a-4,5; b-2,3 C) a-1,4; b-3,7 D) a-2,4; b-5,6
- 72.** Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari aromorfozlar natijasida paydo bo'lgan?
1) tog'ayli baliqlar; 2) suyakli baliqlar; 3) tikandum skat; 4) sudralib yuruvchilar; 5) panjaqanotli baliqlar; 6) latimeriya; 7) soxta kurakburun
A) I,2,3 B) I,2,4 C) 4,5,7 D) 3,6,7
- ### KIMYO
- 73.** Ftorokauchuk olishda qanday monomer(lar) ishlataladi?
1) tetraforetilen; 2) triforxloretilen; 3) diftordixloretilen; 4) viniliden ftorid; 5) vinil ftorid
A) 3,5 B) 2,4 C) I D) 2,3
- 74.** Buten -3-kislota molekulasi tarkibidagi ikkinchi uglerod atomining oksidlanish darajasini toping.
A) +1 B) -2 C) -3 D) +3
- 75.** Quyidagi qaysi modda faqat oksidlovchilik xossasini namoyon qiladi?
A) PbO_2
B) H_2O_2
C) Cu_2O
D) Fe^{2+}
- 76.** DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 3700 ta azot atomi bor bo'lsa, shu DNK ning qo'sh spirali tarkibida nechta vodorod bog' mavjud?
(nukleotidlarning 20% ini guanin tashkil etadi)
A) 1200 B) 1300 C) 800 D) 1000
- 77.** Fosfor mo'l miqdordagi kislrororra yondirilganda olingen oksid 200 g 9,8% li fosfat kislota eritmasida eritilganda fosfat kislota miqdori 3 marta ortdi. Olingen eritmaga o'yuvchi natriy eritmasidan 540 g qo'shilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) aniqlang. Ishqor eritmasida suvning massasi NaOH massasidan 6,5 marta katta.
A) 72 B) 98,4 C) 14,2 D) 85,2
- 78.** 15,9 g akrilonitril gidrolizlanishidan necha gramm akril kislota hosil bo'ladi? ($\eta=0,75$)
A) 43,2 B) 16,2 C) 21,6 D) 28,8
- 79.** Karbon kislota kalsiyli tuzi pirolizidan aldegid olindi. Agar aldegid qaytarilganda olingen spirtning bitta molekulasi tarkibida sp^3 -s qoplanishlar soni 8 ta bo'lsa, dastlabki tuzning tuzilishini aniqlang.
1) $(CH_3COO)_2Ca$, 2) $CH_3CH_2COO-Ca-OOC$,
3) $CH_3COO-Ca-OOCH$, 4) $CH_3COO-Ca-OOCCH_2CH_3$
A) 3 B) 4 C) 2 D) I
- 80.** sp^3 va sp^2 – gibrild orbitallar soni nisbati 4:3 bo'lgan bir asosli to'yingan karbon kislota bilan 55,5 g asos qoldiqsiz reaksiyaga kirishganda 118,5 g o'rta tuz hamda qancha (ml) suv hosil bo'ladi?
A) 36 B) 22,5 C) 13,5 D) 27
- 81.** Berilgan kompleks birikmalaridan neytral kompleksni tanlang.
A) $[Co(NH_3)_3(NO_2)_3]$
B) $[Ag(NH_3)_2]Cl$
C) $K_4[Fe(CN)_6]$
D) $(AlOH)_3(PO_4)_2$
- 82.** Ksantoprotein reaksiysi asosida tirozinga konsentrangan nitrat kislota ta'sir ettilirlganda 75% unum bilan 406,5 g sariq rangli dinitrobirkma hosil bo'ladi. Reaksiya uchun necha mol tirozin olingen?
A) 2,5 B) 1,5 C) 2 D) 3
- 83.** O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol CO_2 gazi, 0,2 mol benzoy kislota va 0,4 mol tereftal kislota hosil bo'ldi. Benzoy kislotani hosil qilgan aromatik uglevodorod massasini (g) aniqlang.
A) 38 B) 45 C) 26,8 D) 53,6
- 84.** Mol nisbatlari mos ravishda 3:2:1 bo'lgan etin, eten va etandan iborat aralashma 6,4 kg bromli suvni rangsizlantiradi. Agar eritmadagi bromning massasi suvning massasidan 49 martta kichik bo'lsa, reaksiya uchun olingen etan massasini (g) aniqlang.
A) 12 B) 3 C) 9 D) 6

85. HClO , HClO_2 , HClO_3 , HClO_4 tartibda kislotalarning oksidlovchilik xossasi qanday o'zgaradi?
- A) ortadi
B) o'zgarmaydi
C) kamayadi
D) avval ortadi, so'ngra kamayadi
86. $0,5$ mol miqdorda olingan XY_2 va AY birikmalarda mos ravishda $13 \cdot N_A$ va $5 \cdot N_A$ tadan elektron bo'lsa, X ni toping. X va Y elementlar bitta davrda (berilgan tartibda) ketma-ket joylashgan.
- A) F B) C C) N D) O
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 30% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stekiometrik nisbatda bo'lса, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmi tarkibini aniqlang.
- A) $1/4; 1/4; 1/2$
B) $1/7; 3/7; 3/7$
C) $1/9; 2/3; 2/9$
D) $2/5; 2/5; 1/5$
88. $3d^{10}$ dagi oxirgi elektron uchun kvant sonlari qiymatini (n, l, m, s) aniqlang.
- A) $3; 2; +2; -1/2$
B) $3; 2; 0; +1/2$
C) $3; 1; -1; -1/2$
D) $3; 2; +2; +1/2$
89. $0,03$ mol $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ va $\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 8\text{H}_2\text{O}$ aralashmasining to'liq degidratlanishidan $0,28$ mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.
- A) $2:1$ B) $2,5:1$ C) $1:1$ D) $1:3$
90. Noma'lum element tarkibida $35,3\%$ neytron (jami atom zarrachaga nisbatan) mavjud. Undagi proton va elektron yig'indisi neytronlar yig'indisidan 10 taga ortiq bo'lса, noma'lum elementni aniqlang.
- A) F B) Br C) Na D) Ne
91. 1 mol C_3H_6 va H_2 aralashmasi ($D_{\text{H}_2}=15$) yopiq idishda katalizator ishtirokida 320°C gacha qizdirildi. So'ngra harorat dastlabki holatga keltirilganda idishdagi bosim 17% kamaygan bo'lса, reaksiyaning nazariy jihatdan unumini (%) toping.
- A) $56,67$ B) $66,67$ C) 70 D) 80
92. $187,5$ ml ($\rho=0,8$ g/mol) $96,4\%$ li etanol eritmasini suvsizlantirish uchun necha gramm kalsiy karbid zarur?
- A) $9,6$ B) $38,4$ C) $3,2$ D) $12,8$
93. 200 g $43,1\%$ Na_2HPO_4 eritmasiga yetarli miqdorda 100 ml H_3PO_4 eritmasi qo'shildi. Bunda olingan eritmadiagi NaH_2PO_4 tuzining massa ulushi Na_2HPO_4 tuzining massa ulushidan 3 marta kam bo'ldi. Qo'shilgan H_3PO_4 eritmasining molyarligini aniqlang.
- A) 1 B) 4 C) 2 D) 3
94. 55% li 109 g oleum 9 g suv bilan aralashtirilsa necha foizli oleum hosil bo'ladi?
- A) $15,15$ B) $85,85$ C) $16,95$ D) $44,84$
95. Eritmadagi H^+ ionlari OH^- ionlaridan 10^{10} marta ko'p bo'lса, eritmaning pOH qiymatini toping.
- A) 10 B) 12 C) 5 D) 4
96. $\text{XO}_4^{3-} \rightarrow \text{X}^{3-}$ Ushbu qaytarilish jarayonida X^{3-} qabul qilgan elektronlar soni dastlabki X ning protonlari sonidan $33/8$ marta kam bo'lса, noma'lum elementni aniqlang.
- A) P B) As C) N D) Sb
97. $\text{KOH} \rightarrow \text{KHCO}_3 \rightarrow \text{CH}_3\text{COOK} \rightarrow \text{KCl}$ reaksiya unumlari mos ketma-ketlikda $75, 80, 50\%$ bo'lса va KCl massasi reaksiya uchun olingan KOH massasidan $33,65$ g ga kam bo'lса, nordon tuzning massasini (g) aniqlang.
- A) 100 B) 75 C) 80 D) 120
98. $0,3$ mol $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ tarkibli kristallogidrat ma'lum miqdordagi suvda eritilib $1,5$ molyalli eritma hosil bo'lgunga qadar 10 amper tok kuchi bilan 19300 sekund davomida elektoliz qilindi. Kristallogidrat necha gramm suvda eritilganligini aniqlang?
- A) $246,4$ B) $96,4$ C) 164 D) 182
99. Ishqoriy metall oksidida kislordning massa ulushi metallnikidan katta. Ishqoriy metallning nisbiy atom massasini toping.
- A) 23 B) 85 C) 7 D) 39
100. Mo'l miqdordagi uglerod Al_2O_3 va CaO aralashmasiga qo'shib qizdirilganda hosil bo'lgan moddalarga yetarli miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirildi. Bunda ajralgan gazlarni bromli suv orqali o'tkazilganda idishning massasi $3,9$ g ga ortdi. Qolgan gazni yoqish uchun esa 1 mol havo sarflandi. Dastlabki aralashmadagi oksidlarning massalarini ganiqlang. (Havo tarkibida hajm bo'yicha $20\% \text{ O}_2$ bor)
- A) $3,4; 4,2$ B) $0,8; 0,34$ C) $6,8; 8,4$ D) $13,6; 16,8$
101. $0,5$ mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi lithiuning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lса, kadmiyning massasini (g) hisoblang.
- A) $22,4$ B) $11,2$ C) 28 D) $16,8$
102. $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot x\text{H}_2\text{O}$ kristallogidrati ohista qizdirilganda $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ tarkibli kristallogidrat hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan suv bug'i dastlabki kristallogidrat tarkibidagi suvning $2/5$ qismini tashkil etsa, kristallogidrat tarkibini aniqlang.
- A) $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$
B) $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 15\text{H}_2\text{O}$
C) $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 8\text{H}_2\text{O}$
D) $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$
103. $x\text{CaCO}_3 = y\text{CaCO}_3 + z\text{CaO} + z\text{CO}_2$ ifodada x, y, z koefitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari $2:1:1:1$ bo'lса, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.
- A) 50 B) 53 C) 170 D) 85
104. Azot, azot(II) oksid va azot(IV)oksiddan iborat 88 ml gazlar aralashmasi suvdan o'tkazilganda 50 ml gaz yutilmay qoldi. Yutilmay qolgan gazlar aralashmasiga 16 ml kislород qo'shilganda aralashmaning hajmi 55 ml ga teng bo'ldi. Hosil bo'lgan aralashmadagi NO_2 ning hajmi ulushini (%) aniqlang.
- A) 50 B) 75 C) 25 D) 40
105. $10,96$ g Ca_3N_2 va CaH_2 dan iborat aralashma teng ikki qismiga ajratildi. Aralashmaning 1-qismiga yetarli miqdorda suv ta'sir ettirilganda $0,16$ mol gazlar ajraldi. 2- qismiga mo'l miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirilganda hosil bo'ladigan CaCl_2 ning miqdorini (mol) hisoblang.
- A) $0,12$ B) $0,04$ C) $0,02$ D) $0,06$
106. Quyidagi tuzlar gidrolizga uchraganda neytral muhit hosil qiladiganlarini ajratting.
- 1) $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$; 2) K_2SO_4 ; 3) $\text{CH}_3\text{COONH}_4$; 4) NaNO_2 ; 5) $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$; 6) $(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca}$
- A) $2, 6$ B) $1, 4, 5$ C) $1, 3, 4$ D) $1, 3$
107. Alkan molekulyar massasi uning takibidagi uglerod va vodorod atomlari massalari ayirmasidan (m.a.b) 12 m.a.b ga ortiq bo'lса, alkanni aniqlang.
- A) etan B) butan C) pentan D) propan
108. Propan va pentan aralashmasi yondirilganda hosil bo'lgan CO_2 miqdori suvning miqdoridan $0,3$ molga kam, sarflangan kislород miqdori esa hosil bo'lgan CO_2 miqdoridan $0,7$ mol ko'p bo'lса, boshlang'ich aralashmadagi propanning miqdorini (mol) aniqlang.
- A) $0,2$ B) $0,3$ C) $0,1$ D) $0,5$